TEMURIYLAR MEROSI JAHON MUZEYLARIDA: MADANIY DIPLOMATIYANING TARIXIY VA ZAMONAVIY OMILI

Qurbonova Dilafruz Abdurashidovna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn institutining
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori,
Tarix fanlari doktori, dotsent.
ORCID: 0009-0000-4206-9207
info@mrdi.uz
DOI: 10.67620/artdsgn.690025

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Temuriylar davri tarixiy-madaniy merosining jahon muzeylarida saqlanishi, o‘rganilishi va namoyish etilishi hamda uning madaniy diplomatiyadagi ahamiyati tahlil qilinadi. Temuriylar merosi O‘zbekiston hududidagi yodgorlik va muzey kolleksiyalaridan tashqari, dunyoning turli mamlakatlaridagi muzey, galereya, kolleksiya, kutubxona va ilmiy fondlarda saqlanayotgan qo‘lyozma, miniatyura, numizmatik material, amaliy san’at va boshqa artefaktlarda ham mujassamdir. Mustaqillikdan keyin Temuriylar tarixini ilmiy o‘rganish va xalqaro miqyosda targ‘ib etishning yangi bosqichi shakllanib, 1996-yilda Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil etilishi jarayonida ushbu mavzu yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Tadqiqotning maqsadi Temuriylar merosining jahon muzeylaridagi o‘rganilish jarayonini tarixiy va zamonaviy jihatdan yoritish hamda muzeylararo hamkorlikning madaniy diplomatiyadagi rolini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, muzeyshunoslik, manbashunoslik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada Temuriylar merosini aniqlash, ilmiy atributsiya qilish, kataloglashtirish, xalqaro ko‘rgazmalar va raqamli loyihalar orqali namoyish etish madaniy muloqotning muhim vositasi ekani asoslandi.*

Kalit so‘zlar*: Temuriylar merosi, jahon muzeylari, madaniy diplomatiya, muzeyshunoslik, tarixiy-madaniy meros, muzeylararo hamkorlik, ilmiy tadqiqot, xalqaro ko‘rgazmalar.*

Kirish. Temuriylar davri tarixiy-madaniy merosi Markaziy Osiyo tarixining muhim tarkibiy qismi bo‘lish bilan birga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotining turli yo‘nalishlarida o‘ziga xos iz qoldirgan ko‘p qatlamli madaniy hodisadir. XIV–XV asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida ilm-fan, me’morchilik, tasviriy va amaliy san’at, adabiyot, kitobat va hunarmandchilikning yuksak darajada rivojlanishi natijasida shakllangan moddiy va ma’naviy meros bugungi kunda O‘zbekiston muzeylari bilangina cheklanmaydi. Temuriylar davriga oid qo‘lyozmalar, miniatyuralar, numizmatik materiallar, qurol-aslaha, amaliy san’at buyumlari va boshqa artefaktlarning muayyan qismi Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq, Yevropa hamda AQShdagi muzey, kutubxona, galereya va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda. Mazkur manbalarni aniqlash, ularning ilmiy tavsifini yaratish, kelib chiqishi va tarixiy-madaniy kontekstini o‘rganish Temuriylar merosini kompleks tadqiq etishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarix va madaniy merosni qayta o‘rganish, ilgari turli sabablarga ko‘ra yetarli darajada tadqiq etilmagan tarixiy manbalarni ilmiy muomalaga kiritish hamda ularni xalqaro ilmiy-madaniy makonda namoyon etish uchun yangi imkoniyatlar

shakllandi. Bu jarayonda muzeylar nafaqat tarixiy-madaniy boyliklarni saqlovchi, balki ularni ilmiy tadqiq etuvchi, talqin qiluvchi va jamiyatga yetkazuvchi muhim institut sifatida maydonga chiqdi. Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil etilishi ham ushbu jarayonning muhim bosqichlaridan biri bo‘ldi. 1996-yil 14-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 99-son qarori va boshqa tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda muzeyning asosiy vazifasi Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, maorif va madaniyat taraqqiyotini haqqoniy aks ettirish va keng targ‘ib qilish bilan bog‘langan.[1][2]

Mazkur qarorning alohida ahamiyati shundaki, Temuriylar tarixi davlat muzeyining ekspozitsiyasini shakllantirish va boyitish masalasi dastlabki bosqichdayoq xalqaro muzeylar va xorijiy kolleksiyalar bilan bog‘langan. Qarorning 4-bandida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda chet ellarda saqlanayotgan Amir Temur va temuriylar davriga oid tarixiy hujjat-ashyolar hamda osori atiqalar ro‘yxatini aniqlash, shuningdek, ularning asl nusxalari yoki nusxalarini O‘zbekistonga olib kelishni ta’minlash vazifasi yuklatilgan. Shu bilan birga, muzeyning ilmiy dasturi va ko‘rgazma rejalarini ishlab chiqish ham alohida belgilangan. Demak, xorijiy muzeylar fondlarini o‘rganish va ularda saqlanayotgan Temuriylar davri merosini aniqlash muzey faoliyatining keyinchalik shakllangan yo‘nalishi emas, balki uni tashkil etishning dastlabki konseptual va tashkiliy vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lgan.

Bu yondashuv Temuriylar merosining geografik jihatdan tarqoqligini ilmiy muammo sifatida o‘rganishni ham taqozo etadi. Xorijiy muzeylarda saqlanayotgan obyektlarni aniqlash faqat ularning qayerda saqlanishini qayd etish bilan cheklanmay, ashyolarning ilmiy atributsiyasi, sanasi, kelib chiqishi, badiiy-uslubiy xususiyatlari va kolleksiyaga kelib tushish tarixini tadqiq etishni talab qiladi. Avvalgi tadqiqotlarda Osiyo va MDH mamlakatlari, Yevropa hamda AQSh muzeylarida saqlanayotgan XIV–XV asrlarga oid moddiy-madaniy yodgorliklarni aniqlash, ularning ilmiy tavsiflarini o‘rganish va kataloglashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bunday izlanishlar natijasida Temuriylar davri merosining jahon muzeylaridagi tarqalish geografiyasi, uning turli kolleksiyalardagi tarkibi va ilmiy o‘rganilish darajasi haqida muhim ma’lumotlar shakllandi.

Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar yakunlangan deb hisoblash mumkin emas. Xorijiy muzey va kutubxonalarning fondlari muntazam ravishda qayta kataloglashtirilishi, raqamlashtirilishi va ilmiy tadqiqotlarga jalb etilishi natijasida Temuriylar davriga oid ilgari yetarlicha o‘rganilmagan manba va artefaktlarni aniqlash imkoniyati saqlanib qolmoqda. Bunda yangi topilmalarni aniqlash bilan bir qatorda, ilgari ma’lum bo‘lgan obyektlarning qayta atributsiyasi, ularning kelib chiqishi va tarixiy kontekstini aniqlashtirish ham muhim ilmiy natija bo‘lishi mumkin. Xususan, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi muzeyi ekspozitsiyasini tashkil etish uchun xorijiy auksion uylari va galereyalarga maxsus komissiya tomonidan (Akbar Hakimov, Farhod Maqsudov, Bahrom Abduhalimov, Firdavs Abduxalikov va boshqalar) uyushtirilgan xizmat safarlari natijasida temuriylar davriga, hattoki temuriy hukmdor va shahzodalarga mansub ko‘plab ashyolar mavjudligi aniqlanib kelinmoqda.[3] Shu jihatdan bugungi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 99-son qarori. 14.03.1996.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Temuriylar tarixi davlat muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 50-son qarori, 24.01.1997-yil.

[3] “WOSCU ва Ислом цивилизацияси маркази Буюк Британиядан йўқолган меросни қайтаришга эришди” Manba: https://zamon.uz/uz-cyrl/2026/04/30/woscu-va-islom-civilizaciyasi-markazi-buyuk-britaniyadan-jolgan-merosni-ajtarishga-erishdi

bosqichda ushbu jarayonning mazmuni xalqaro muzey hamkorligi va madaniy diplomatiya doirasida yanada kengaymoqda. Xorijiy muzeylardagi Temuriylar merosini o‘rganish, ilmiy almashinuv, ko‘rgazmalar tashkil etish, kolleksiyalar haqidagi ma’lumotlarni o‘zaro taqdim etish, raqamli nusxalardan foydalanish va ilmiy kataloglar yaratish tarixiy merosni bir mamlakat doirasidan tashqarida ilmiy va madaniy muloqot vositasiga aylantiradi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyining zamonaviy rivojlanishida ham ushbu yo‘nalish davom etmoqda. 2026-yilda yangilangan ekspozitsiya xorijiy to‘plamlardan xarid qilingan eksponatlar bilan boyitilgani, unda sun’iy intellekt, interaktiv texnologiyalar va 3D formatdagi materiallardan foydalanish orqali xorijlik mehmonlarga tarixiy-madaniy aloqalar va mustaqillik yillaridagi madaniy diplomatiya hadyalar va media kontentlar misolida namoyish etilayotganini ta’kidlash mumkin. Bu holat Temuriylar merosini jahon muzeylari doirasida o‘rganish masalasining an’anaviy fond-tadqiqot faoliyatidan raqamli, ko‘rgazmaviy va xalqaro hamkorlik shakllariga tomon kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan Temuriylar merosining jahon muzeylarida saqlanishi va o‘rganilishi masalasini tarixiy jarayon hamda zamonaviy muzeylararo hamkorlik nuqtayi nazaridan tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir. Mazkur tadqiqot Temuriylar merosining xorijiy muzeylardagi mavjudligi va ilmiy o‘rganilish jarayonini tahlil qilish, O‘zbekiston muzeylarining ushbu merosni aniqlash va namoyish etishdagi rolini ko‘rsatish hamda muzeylararo ilmiy-madaniy aloqalarning madaniy diplomatiya doirasidagi ahamiyatini ochib berishga qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili

Temuriylar madaniy merosining jahon muzeylaridagi o‘rni va uning madaniy diplomatiya vositasi sifatidagi ahamiyati mavzusi hozirgi kunda hali to‘liq va tizimli tarzda o‘rganilmagan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar bir necha bosqichlardan iborat. Mavzuning tarixshunosligini shartli ravishda uch guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq: 1) O‘zbekistonda madaniy meros va muzey kolleksiyalarini shakllantirish, o‘rganish hamda komplektlashga oid tadqiqotlar; 2) xorij muzeylaridagi Temuriylar davri ashyolarini identifikasiya qilish, tavsiflash va ularning ilmiy atributsiyasiga bag‘ishlangan ishlar; 3) madaniy diplomatiya, “yumshoq kuch” va muzeylarning xalqaro imij shakllantirishdagi roliga doir zamonaviy qarashlar.

Birinchi guruh tadqiqotlari XX asrning birinchi yarmidan boshlab M.E. Masson, A.Y. Yakubovskiy, A.M. Mironov, N.P. Ostroumov, I.V. Anichkov, I.A. Suxarev, Y.G‘. G‘ulomov kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Ular bevosita Temuriylar merosini komplektlashga bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, arxeologik va numizmatik kolleksiyalarni to‘plash, saqlash hamda muzeyshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishda muhim nazariy asos yaratdi. 1960-yillardan e’tiboran B.V. Lunin, T.N. Qori-Niyozov, N.S. Sodiqova, Y.F. Buryakov, T.A. Kryukova, T. Krukovskaya, E.N. Studeneskaya, T. Abdullayevlarning fundamental ishlari O‘zbekistonda muzey ishi tarixi, madaniy merosni o‘rganish va saqlash jarayonlarini yoritdi. Mustaqillik davrida esa R.V. Almeyev, D.T. Kuryazova, J.X. Ismoilova, N. Habibullayev, B.V. Hasanov va boshqalar zamonaviy muzeyshunoslik muammolari, kolleksiyalarni komplektlash hamda ekspozitsiyalarni yangilash masalalariga e’tibor qaratdilar.[4]

Mavzuning ikkinchi, ya’ni xorij muzeylaridagi Temuriylar merosiga bag‘ishlangan qismida D.A. Qurbonovaning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Uning “Xorij muzeylarida saqlanayotgan temuriylar davriga oid tarixiy va madaniy yodgorliklar” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (2009) va keyinchalik nashr etilgan “Temuriylar madaniy merosining O‘zbekiston

[4] Қурбонова Д. А. Хориж музейларида сақланаётган темурийлар даврига оид тарихий ва маданий ёдгорликлар. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2009.

muzeylaridagi tarannumi” monografiyasi (2024) mazkur yo‘nalishdagi ilk tizimli izlanishlar sirasiga kiradi. Dissertatsiyada Osiyo va MDH, Yevropa hamda AQSH muzeylaridagi XIV–XV asrlarga oid ashyolarning ilmiy tavsifi, ularning xorijga olib chiqilish sabablari va qaytarish muammolari batafsil tahlil etilgan. Monografiya esa O‘zbekiston muzeylaridagi Temuriylar davri amaliy san’at namunalari, kulolchilik, miskarlik, zargarlik, harbiy san’at, miniatyura va qo‘lyozmalarni bir joyga jamlab, ularning ilmiy tavsiflarini bergan. Bu ishlar Temuriylar renessansi merosining nafaqat mahalliy, balki jahon miqyosidagi tarqalishini ko‘rsatishda muhim manba hisoblanadi.

Xorijiy olimlarning Temuriylar davri moddiy madaniyati, islom san’ati va Markaziy Osiyo badiiy merosiga oid izlanishlari ham mavzu uchun alohida ahamiyatga ega. Jumladan, Yoxen Sokoli (Oksford universiteti) islom davri moddiy madaniyati va to‘qimachilik san’ati bo‘yicha xalqaro ekspert sifatida, Firuza Melvill (Kembrij universiteti) fors qo‘lyozmalari, miniatyura san’ati va Temuriylar va Boburiylar davri madaniy merosi bo‘yicha mutaxassis sifatida, Mark Merroni, Ulf Yeger, Uilyam Grinvud, Ananya Sharma, Rim Mezgani, Maykl Franses, Maykl Spink, J. Maks Bernxaymer, Jorjina Aytken kabi olimlar esa islom san’ati ashyolarini atributsiyalash, baholash va kelib chiqish tarixini o‘rganishga katta hissa qo‘shganlar. Metall buyumlarni ilmiy tahlil qilishda Piter Nortover, Piter Meyers, Jek Ogden, Igor Goroxovskiy, qo‘lyozma va qog‘oz asarlarini davrlashtirishda Xelen Lovdey kabi mutaxassislarning xulosalari Temuriylar merosining jahon muzeylaridagi asl nusxalarini ilmiy asosda tasdiqlashga xizmat qilmoqda.

Uchinchi guruh – madaniy diplomatiya va muzeylarning “yumshoq kuch” sifatidagi roliga oid qarashlar hali mahalliy tadqiqotlarda kam o‘rganilgan. Xorijiy adabiyotlarda muzeylar davlatning xalqaro imijini shakllantirish, madaniy almashinuvni rivojlantirish va tarixiy merosni zamonaviy diplomatiya vositasiga aylantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Temuriylar merosining jahonning yirik muzeylarida (Britaniya muzeyi, Viktoriya va Albert, Metropoliten, Luvr, Ermitaj, Berlin davlat muzeylari va boshqalar) saqlanishi va namoyish etilishi O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasi uchun muhim vosita hisoblanadi. Biroq mazkur merosning madaniy diplomatiyaning tarixiy va zamonaviy omili sifatidagi roli, uning xalqaro muloqotdagi o‘rni va potensial imkoniyatlari hali alohida ilmiy tadqiqot obyektiga aylanmagan.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar Temuriylar madaniy merosining O‘zbekiston va qisman xorij muzeylaridagi holatini yoritib bergan bo‘lsa-da, uning jahon muzeylari tizimidagi o‘rni, madaniy diplomatiya vositasi sifatidagi tarixiy tajribasi va zamonaviy imkoniyatlari hali to‘liq tadqiq etilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tarixiy-madaniy va madaniy-diplomatik yondashuvlar asosida olib borildi. Asosiy metodlar sifatida tarixiy-qiyosiy tahlil, manbashunoslik tahlili, tavsifiy-analitik va tizimli yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston va xorijiy muzeylar fondlaridagi Temuriylar davri ashyolari haqidagi kataloglar, ilmiy tavsiflar, arxiv hujjatlari, monografiyalar hamda xalqaro ekspertlarning xulosalari o‘rganildi. Madaniy diplomatiya aspektini ochib berishda muzey ekspozitsiyalari va xalqaro ko‘rgazmalar “yumshoq kuch” vositasi sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqot interdisiplinar xarakterga ega bo‘lib, muzeyshunoslik, san’atshunoslik va xalqaro munosabatlar sohalarining metodlarini uyg‘unlashtiradi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar madaniy merosi nafaqat O‘zbekiston, balki jahonning yirik muzeylarida saqlanayotgan nodir ashyolar orqali global

madaniy merosning ajralmas qismi hisoblanadi. XIV–XV asrlarga oid kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, miniatyura, qo‘lyozma va harbiy san’at namunalari Yevropa, AQSh, Osiyo va MDH davlatlari muzeylarida keng tarqalgan. Bu ashyolar o‘z davrining yuksak estetik va texnologik darajasini aks ettirib, Temuriylar renessansining xalqaro miqyosdagi o‘rni va ta’sirini isbotlaydi. Shu bilan birga, ularning xorijiy kolleksiyalarda saqlanishi madaniy diplomatiya uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda: muzey ekspozitsiyalari orqali O‘zbekistonning tarixiy o‘rni va ma’naviy qadriyatlari jahon jamoatchiligiga yetkazilmoqda.[5]

So‘nggi yillarda O‘zbekiston rahbariyati tomonidan olib borilayotgan tizimli ishlar bu sohada sezilarli natijalarga olib keldi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasidagi tashabbuskor nutqi asosida barpo etilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi (2026-yil mart oyida ochildi) madaniy diplomatiyaning yangi bosqichini belgilab berdi. Markazning “Ikkinchi Renessans” nomli zali asosan Temuriylar davriga bag‘ishlangan: unda Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davridagi ilmiy-kashfiyotlar xaritasi, miniatyuralar, me’morchilik elementlari, kulolchilik namunalari, Umar Aqto tomonidan ko‘chirilgan Qur’on parchasi, Boburiylar davri qo‘lyozmalari, to‘qimachilik namunalari, tasviriy san’ati, qurol-aslaha va boshqa ashyolar namoyish etilmoqda. Markaz fondida 2000 dan ortiq eksponat, jumladan Temuriylar davriga oid 50 dan ortiq xorijdan qaytarib olib kelingan merosimiz jamlangan. Prezidentning bevosita ko‘rsatmalari asosida xorijiy muzey, galereya va auksion uylaridan ashyolarni qaytarish (repatriatsiya) jarayoni faol olib borilmoqda. Mazkur ashyolarning ba’zilari (40 dan ortiq) Temuriylar tarixi davlat muzeyining yangilangan ekspozitsiyasida namoyish etilmoqda.[6]

Madaniy diplomatiya doirasida Turkiya, Ozarbayjon va Hindiston kabi yaqin va strategik hamkor davlatlar bilan aloqalar yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Rasmiy tashriflar chog‘ida umumiy tarixiy merosimizga oid ashyolar, qo‘lyozmalarning faksimile nusxalari va kitoblar hadya qilinishi, qo‘shma ko‘rgazmalar, madaniyat kunlari hamda ilmiy-ma’rifiy loyihalar o‘tkazilishi do‘stona munosabatlarni yanada mustahkamlab va xalqlar o‘rtasidagi ma’naviy yaqinlikni chuqurlashtirmoqda.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning kitob va qo‘lyozma hadya qilish an’anasi madaniy diplomatiyaning samarali vositasiga aylangan. Jumladan, 2020-yilda Anqaradagi Xalq kutubxonasi ochilishida Turkiyaga “Usmon Mushafi”ning o‘zbek xattotlari tomonidan ko‘chirilgan nusxasi, Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”si va Abu Bakr ar-Roziy asarlarining faksimile nusxalari, “Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviriy nusxalari” kitob-albomi hamda Yunus Emre she’rlari to‘plami taqdim etilgan. 2022-yilda esa Turkiya prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘onga turkiy xalqlarning umumiy merosi hisoblangan “Dada Qo‘rqut kitobi”ning o‘zbek tilidagi nashri hadya qilingan. Ozarbayjon bilan munosabatlarda ham shunday yondashuv kuzatiladi: umumiy adabiy-ma’naviy meros (Fuzuliy, Navoiy, Nizomiy an’analari) doimo ta’kidlanib, qo‘shma loyihalar va madaniy almashinuvlar orqali mustahkamlanmoqda. Bu jarayonlar orqali “Temuriylar merosi – bizning umumiy tariximiz” degan dunyoqarash yanada mustahkamlanmoqda. Turkiy xalqlarning umumiy ma’naviy-madaniy ildizlari, Ipak yo‘li

[5] Қурбонова Д. А. Хориж музейларида сақланаётган темурийлар даврига оид тарихий ва маданий ёдгорликлар. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2009.

[6] D. Kurbanova, K. Yunusov. O‘zbekiston muzeylarida saqlanayotgan temuriylar davri ashyolarining tarixni yoritishdagi ahamiyati // International Scientific and Practical Conference “Current Issues in the Theory of Museology and the Practice of Museum Management in the 21st Century”, May 14, 2026.

an’analari va islom sivilizatsiyasidagi o‘rni ta’kidlanib, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama munosabatlar chuqurlashmoqda.[7]

Shu qatorda 2026-yil avgust oyida Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining O‘zbekistonga davlat tashrifi chog‘ida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetidagi Mahatma Gandi markazida Hindiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi qadimiy madaniy-tarixiy aloqalarga bag‘ishlangan maxsus ko‘rgazma va uchrashuvlar o‘tkazildi. Unda ikki xalq o‘rtasidagi sivilizatsion yaqinlik, umumiy ma’naviy meros, til va adabiyot rishtalari tarixiy ashyolar, qo‘lyozmalar va ilmiy materiallar misolida namoyish etildi. Bu tadbir madaniy diplomatiyaning yorqin ifodasi bo‘lib, ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi ham bu jarayonda muhim o‘rin tutmoqda. 2026-yilning iyun oyiga qadar muzeyga 16 mingga yaqin xorijiy sayyohlar tashrif buyurdi. Ular orasida rasmiy martabali mehmonlar ham bo‘lib, ekspozitsiya bilan yaqindan tanishtirildi. Bu esa Temuriylar merosining xalqaro miqyosdagi qiziqishini va madaniy diplomatiya vositasi sifatidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, bunday tashabbuslar Temuriylar merosini nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyat sifatida taqdim etish, xalqaro maydonda O‘zbekistonning ochiq, ma’rifatparvar davlat sifatidagi imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar merosining jahon muzeylaridagi mavjudligi va O‘zbekiston tomonidan olib borilayotgan faol siyosat madaniy diplomatiyaning samarali vositasiga aylangan. Bu nafaqat milliy o‘zlikni mustahkamlash, balki xalqaro maydonda O‘zbekistonning ma’rifatparvar, ochiq va tarixiy merosini asrab-avaylovchi davlat sifatidagi imijini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida xorijiy kolleksiyalar bilan yanada chuqur hamkorlik, raqamli kataloglar yaratish va qo‘shma ekspozitsiyalar tashkil etish ushbu yo‘nalishdagi natijalarni yanada oshirishi mumkin.

Xulosa. Temuriylar davri tarixiy-madaniy merosi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining eng yuksak yutuqlaridan biri bo‘lib, u nafaqat O‘zbekiston hududidagi yodgorliklar va muzey kolleksiyalarida, balki dunyoning turli mamlakatlaridagi yirik muzey, kutubxona, galereya va shaxsiy kolleksiyalarda ham saqlanayotgani ushbu maqolada so‘nggi vaqtlardagi ma’lumotlar asosida o‘rganilib, madaniy diplomatiyadagi o‘rni tahlil etildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu merosning jahon muzeylaridagi mavjudligi va ilmiy o‘rganilishi madaniy diplomatiyaning muhim tarixiy va zamonaviy omiliga aylangan. Muzey ekspozitsiyalari, xalqaro ko‘rgazmalar, ashyolarni qaytarish, qo‘shma ilmiy loyihalar va diplomatik hadyalar orqali Temuriylar merosi xalqaro muloqot, o‘zaro hurmat va ma’naviy yaqinlikni mustahkamlovchi samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mustaqillik yillarida, xususan so‘nggi davrda O‘zbekiston rahbariyati tomonidan olib borilayotgan izchil siyosat bu yo‘nalishda sezilarli natijalarga olib keldi. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi, Temuriylar tarixi davlat muzeyining zamonaviy qiyofaga keltirilishi, xorijiy kolleksiyalardan ashyolarning repatriatsiya qilinishi, Markaziy Osiyo Respublikalari, Turkiya, Ozarbayjon, Hindiston va boshqa davlatlar bilan madaniy aloqalarning chuqurlashishi Temuriylar merosini nafaqat milliy o‘zlikni mustahkamlash, balki mamlakatning xalqaro imijini yuksaltirish vositasiga aylantirdi.

[7] “Shavkat Mirziyoyev kimga qanday kitob sovg‘a qilgan?” Gazeta.uz xabari. Manba: https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/19/gift-books/

Shu bilan birga, Temuriylar merosining jahon muzeylaridagi o‘rni hali to‘liq va tizimli o‘rganilmagan. Xorijiy fondlarni chuqurroq tadqiq etish, raqamli kataloglar yaratish, qo‘shma ekspozitsiyalar tashkil etish va xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu borada D.Qurbonova tomonidan alohida tadqiqot ishi amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, quyida yana bir qator vazifalarni taklif va tavsiya o‘rnida keltirish mumkin:

1. Xorijiy muzey, kutubxona va auksion uylaridagi Temuriylar davri ashyolarining yagona elektron reestri va raqamli katalogini yaratish ishlarini tizimli davom ettirish.

2. Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va xorijiy muzeylar o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlik memorandumlarini imzolash, qo‘shma ko‘rgazmalar va ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish.

3. Temuriylar merosiga oid xalqaro ilmiy konferensiyalar, seminarlar va yosh tadqiqotchilar uchun maxsus grant dasturlarini kengaytirish.

4. Madaniy diplomatiya doirasida rasmiy tashriflar chog‘ida hadya qilinadigan umumiy tarixiy meros namunalarini ko‘paytirish (faksimile nusxalar, kitob-albomlar).

5. Muzey ekspozitsiyalarida sun’iy intellekt, 3D texnologiyalar va virtual sayohat imkoniyatlarini yanada rivojlantirish orqali xorijiy auditoriyaga yetkazish samaradorligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar merosining jahon muzeylaridagi o‘rni va uni madaniy diplomatiya vositasiga aylantirish O‘zbekistonning nafaqat o‘tmishini, balki kelajagini ham belgilovchi strategik yo‘nalishdir. Ushbu merosni chuqur o‘rganish, asrab-avaylash va xalqaro maydonda munosib taqdim etish orqali mamlakatimiz o‘zining sivilizatsion salohiyatini yanada yuksaltirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 99-son qarori. 14.03.1996.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Temuriylar tarixi davlat muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 50-son qarori, 24.01.1997-yil.
3. Амир Темур жаҳон тарихида. – Тошкент: Шарқ, 1996. – 293 б.
4. Қурбонова Д. А. Хориж музейларида сақланаётган темурийлар даврига оид тарихий ва маданий ёдгорликлар. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертатsiя. – Тошкент, 2009.
5. Курбонова Дилафруз Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплектлаш тамойиллари. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатsiя. – Тошкент, 2020.
6. Курязова Дарманжан. Ўзбекистон моддий-маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатsiя. – Тошкент, 2021.
7. D. Kurbanova, K. Yunusov. O‘zbekiston muzeylarida saqlanayotgan temuriylar davri ashyolarining tarixni yoritishdagi ahamiyati // International Scientific and Practical Conference “Current Issues in the Theory of Museology and the Practice of Museum Management in the 21st Century”, May 14, 2026
8. D. Kurbanova, Z. Dosmetova, U. Karabayev, E.Khaitov, N. Nabieva, G. Abdullaeva. Museum Artifacts as Linguistic Archives: Exploring Linguistic Insights from Timurid Artifacts // Jurnal Arbitrer - Vol. 12 No. 4 (2025)

9. Miraliyeva Sh. Temuriylar tarixi davlat muzeyining yangilangan ekspozitsiyasi xususida // International Scientific and Practical Conference “Current Issues in the Theory of Museology and the Practice of Museum Management in the 21st Century”, May 14, 2026.
10. “WOSCU ва Islom sivilizayasi markazi Buyuk Britaniyadan yo‘qolgan merosni qaytarishga erishdi” Manba: https://zamon.uz/uz-cyrl/2026/04/30/woscu-va-islom-civilizaciyasi-markazi-buyuk-britaniyadan-jolgan-merosni-ajtarishga-erishdi
11. “Shavkat Mirziyoyev kimga qanday kitob sovg‘a qilgan?” Gazeta.uz xabari. Manba: https://www.gazeta.uz/oz/2025/03/19/gift-books/